
Bugun Xalq deputatlari Farg'ona viloyat kengashining navbatdan tashqari 32-sessiyasi bo'lib o'tdi

Bugun Xalq deputatlari Farg'ona viloyat kengashining navbatdan tashqari 32-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi Umar Ismoilovlar ishtirok etdilar. Yig'ilishni kengash raisi, viloyat hokimi Shuhrat G'aniev olib bordi.

Sessiya kun tartibida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 12-13 iyun kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida viloyatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilab bergan vazifalar va viloyat faollari bilan o'tkazilgan yig'ilish davomida berilgan topshiriqlar, tashkiliy hamda boshqa masalalar ko'rib chiqildi.

Sessiya qaroriga ko'ra, Farg'ona viloyat hokimining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Qo'chqorov Sadridin Burxonovich o'rniga Ortiqov Akmalxon Jo'raxonovich hamda qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari Tursunov Alibek Ma'murjonovich o'rniga Teshayev Shuhrat Jo'raqulovich tayinlanganligi bir ovozdan ma'qullandi.

Yig'ilishda viloyat hokimining yangi tayinlangan o'rinbosarlari mamlakatimiz rahbari e'tiboriga tushgan, yuqori bilim va kasbiy tajribaga ega, mehnat faoliyati davomida samarali ishlagan eng yaxshi kadrlardan ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Sessiya yakunida deputatlar hamda yangi tayinlangan o'rinbosarlar so'zga chiqib, o'zlariga bildirilgan ishonchni oqlash va zimmalariga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishga va'da berdilar.

2018-06-14 15:22:21